


**14-MA'RUZA**

# **KOMA**

**Prof. IBODULLAYEV**  
**Zarifboy Rajapovich**

# Hushsiz holatlar turlari



## SINKOPE

- ***Sinkope*** – qisqa muddatli (20-30 soniya) hushdan ketish. Sinkope o'tkir holat hisoblanadi.
- Sinkope uchun hushning uzoq muddatga yo'qolishi xos emas.

# Sinkope sabablari-1

- **Ortostatik gipotenziya, simpatektomiya.**

- **Aritmiya, fibrillyasiya, stenokardiya.**

- **Uyqu arteriyasi stenozi.**

- **Vertebrobazilyar ishemiya.**

- **Tinmay yo'talish va aksa urish.**

# Sinkope sabablari-2

• 1

- Gipoklikemiya, gipokaliemiya, gipokalsiemiya, o'tkir gemorragiya, anemiya.

• 2

- IV qorincha o'smasi, gidrotsefaliya.
- Is gazi bilan zaharlanish.

• 3

- Issiq joyda qolib ketish, oftob urishi;
- Qattiq qo'rqish va stress.

# Sinkope mexanizmi

- Serebral va periferik vazomotor markazlarga kuchli ta'sir.

- O'tkir serebral ishemiya va gipoksiya.

- Sinkope – qisqa muddatga (20-30 soniya) hushdan ketish.

# Sinkope klinikasi

• 1

- Ko'z oldi qorong'ilashib ketadi;
- Bosh aylanadi va darrov hushdan ketadi.

• 2

- Sovuq shudringsimon ter bosadi;
- Rangi-ro'yi oqarib ketadi.

• 3

- AQB tushadi (kollaps darajasida emas);
- Bemor 20-30 soniyada hushiga keladi.

• 4

- Hushiga kelgach, ko'ngli aynib loxas yotadi.

# Sinkope nima? Shok nima?


- Sinkope AQBning keskin tushib ketmasligi va tezda tiklanishi bilan shok (kollaps)dan farq qiladi.




# Sinkopeda nima kuzatilmaydi?




- Nafas olish va yurak urishi to'xtab qolmaydi.



- Tutqanoq xurujlari kuzatilmaydi.



- Sopor va koma rivojlanmaydi.




- Bemor darrov hushiga keladi.


# Sinkope turlari



- Vazodepressor (vazovagal). Asosan, o'smirlarda kuzatiladi. Sababi – qattiq qo'rqish, issiq joyda qolib ketish.



- Ortostatik gipotenziya – gorizontal holatdan vertikal holatga o'tganda ro'y beradi.



- Kardiogen sinkope – aritmiya, fibrillyasiya, stenokardiya, miokard infarkti.

# Drop-ataka (*dropp-attax*)

- Drop-ataka (*dropp-attax*) – hushni yo‘qotmasdan o‘ta qisqa muddatga yiqilib tushish bilan namoyon bo‘ladigan o‘tkir holat. Buning sababi – retikulyar formatsiyaning o‘tkir ishemiyasi.
- Demak, drop-ataka – bu vertebrobazilyar sohada ro‘y bergan TIA.

# Drop-ataka klinikasi

- Drop-ataka paytida bemor to'satdan ro'y bergan muskullar atoniyasi sababli yiqilib tushsa, sinkope paytida hushini yo'qotgani uchun yiqilib tushadi. Ikkala holat ham bir necha soniya davom etgani uchun ularni farqlash o'ta qiyin.

# Nima uchun yiqilib tushadi?

## Drop-atakada


- Muskullar atoniyasi sababli yiqilib tushadi
- Hushini yo'qotmaydi!


## Sinkopeda

- Hushdan ketganligi sababli yiqilib tushadi.

● Ikkala holat ham bir necha soniya davom etadi

# Karotid sinus sezgirligi

- 
- Sababi – arterial gipertenziya va uyqu arteriyasi aterosklerozi.

- 
- Katta yoshdagilarda uchraydi. Galstukni siqib bogʻlaganda yoki boshni yon tomonlarga burganda roʻy beradi.

# Isterik sinkope (psevdosinkope)


- Истерияда кузатилади. Шахс ўзини ҳушини йўқотган одамдек тутуди, кичриклари пирпираб туради. Ҳақиқий ҳушдан кетган одамнинг кичриклари пирпирамайди.

# Sinkopeda tez yordam


- Yuziga sovuq suv sepish;
  - Yoqalarini ochish;
  - Sovuqroq havoni ta'minlash;
  - Novshadil spirtini hidlatish.
- 
- **Prognoz har doim yaxshi!**




# Sinkopeda qiyosiy tashxis




- Kollaps



- Sopor



- Katapleksiya



- Epileptik xuruj  
(absans).

# Kollaps

- **Kollaps** — arterial va venoz bosimning keskin tushib ketishi bilan namoyon boʻluvchi oʻtkir qon-tomir yetishmovchiligi.

# Organizmدا nima ro'y beradi?

- Barcha a'zo va to'qimalarda gipoksiya;
- Moddalar almashinuvining keskin sustlashadi;
- Hayotiy muhim funksiyalar izdan chiqadi.

# Kollaps etiologiyasi

• 1

- Miokard infarkti va o'tkir qon yo'qotishlar.
- O'pka arteriyalari tromboemboliyasi.

• 2

- Turli etiologiyali shoklar;
- Katta sohani egallovchi kuyishlar.

• 3

- O'tkir zaharlanish va intoksikatsiyalar;
- Neyroendokrin kasalliklar;

# Kollapsning dastlabki belgilari

- Rangi oqarib ketadi (kardiogen kollapsda sianoz).

- Sovuq ter bosadi va boshi aylanib o'tirib qoladi.

- Butun badan titrab, oyoq-qo'llar muzlab boshlaydi.

- Havo yetishmay tez-tez nafas oladi, bezovtalanib kuchli qo'rquv bosadi.

# Kollapsning keyingi belgilari

- Koʻz oldi qorongʻilashib ketadi va koʻrishi sustlashadi. Midriaz, fotoreaksiya soʻna boshlaydi.

- Tomir urishi pasaya boradi, taxikardiya rivojlanadi. AQB keskin tushib ketadi.

- Muskullar gipotoniyasi, hushini yoʻqota boshlaydi va tez yordam bermasa, kollaps komaga oʻtadi. Oʻlim!!!

# Turli etiologiyali kollaps klinikasi

## Toksik kollaps

- Sababi – o‘tkir zaharlanishlar va intoksikatsiyalar;
- Ko‘ngil aynish va ketma-ket qusishlar;
- Diareya va organizmning umumiy suvsizlanishi.

## Infeksion kollaps

- Eptik shok paytida rivojlanadi;
- Tana harorati tushib ketadi;
- Bemor yotgan choyshab jiqqa ho‘l bo‘ladi.

# Kollaps tashxisi

- Zudlik bilan aniqlanishi kerak.

- AQB tushib ketadi, sopor va komaga o'tadi.

- Kollaps turli etiologiyali shoklarning ajralmas qismidir.



# Turli etiologiyali kollaps klinikasi

## Kardiogen kollaps

- Yurakning o'tkir yetishmovchiligi va o'pka shishi simptomlari bilan namoyon bo'ladi;
- Og'irroq kechadi;
- Sopor va komaga o'tadi;
- Prognoz yomon.

## Ortostatik kollaps

- Uzoq kunlar gorizontal holatda yotgan bemor o'rnidan turgach ro'y beradi;
- yengil kechadi;
- Bemor yana o'rniga yotsa, o'tib ketadi.

# Kollapsda tez yordam

- Kislород ta'minlanadi!
- Gorizontal holat ta'minlanadi!
- Bemor ustiga odeyal yopiladi, oyoq biroz ko'tarilgan holatda bo'ladi!

# Kollapsda tez yordam

1

- Teri ostiga darrov 10 % li 2 ml kofein-benzoat natriy qilinadi.

2

- Kolloid eritmalar (reomakrodeks), elektrolitlar (natriy bikorbanat, atsesol, disol).

3

- Kollaps darajasiga qarab bu dorilar 1000-2000 ml miqdorda oz-ozdan quyiladi.


# Kollapsda volemik eritmalar

- Volemik eritmalar sirkulyasiya qiluvchi qon xajmini oshiradi va yurak faoliyatini qayta tiklaydi. Shu bois ular turli etiologiyali kollapslarda qilinadi. Kollapslarda natriy xloridning gipertonik eritmaları ham beriladi.


# Shuningdek...

- Qon yo'qotishlar sababli ro'y bergan kollapsda qon ketayotgan joy tezda aniqlanib, u darrov to'xtatiladi. Bemorga qon va plazma quyilishi shart. Toksik etiologiyali kollapsda qo'shimcha ravishda antidot terapiya o'tkaziladi.


# Kardiogen etiologiyali kollapsda tez yordam!



- AQB ni ko'tarish uchun venadan vazopressorlar (dopamin, noradrenalin) yuboriladi.



- Dopamin bir daqiqaga 200 mkg tezlikda qilinadi yoki 0,2 % li 1-2 ml noradrenalin natriy xloridning izotonik eritmasida v/ iga yuboriladi.



- Deyarli barcha holatlarda kislorod ham beriladi.


# Koma


- Ongli faoliyatning keskin buzilishi.


- Koma alohida kasallik emas, balki boshqa kasalliklarning og'ir asorati.

- Komadan keyingi davr – bu o'lim.

# Sopor nima?


- 
- Hush biroz yengil darajada buziladi;
  - Tashqi ta'sirlarga bo'lgan reaksiyalar saqlanib qoladi.

- 
- Atrofdagilar gapini eshitadi-yu, biroq uning ma'nosini anglay olmaydi.


- 
- Qorachiq, teri va pay refleksleri saqlangan bo'ladi.




# Sopor klinikasi



- Tanasiga nina sanchsa, oyoq-qo'lini qimirlatadi.



- Baland ovozda gapirsa ko'zini ochadi.



- Ba'zida yengil topshiriqlarni (qo'lingizni ko'taring, ko'zingizni oching, oyog'ingizni torting) bajaradi.

# Birinchi darajali koma

- Hush o'rtta darajada buziladi.

- Ixtiyoriy, ya'ni maqsadli harakatlar qilmaydi.

- Savollarga javob bermaydi.

- Tashqi shovqinlarga javob reaksiyasi keskin pasayadi.

# Ikkinchi darajali koma

• 1

- Hush kuchli darajada buziladi.

• 2

- Tashqi ta'sirlarga javob reaksiyasi keskin pasayadi.

• 3

- Korneal va kon'yuktival reflekslar hamda qorachiqslarning yorug'likka reaksiyasi keskin pasayadi.

# Uchinchi darajali koma (chuqur koma)

- 1 Barcha tashqi ta'sirlarga javob reaksiyasi butunlay yo'qoladi.
- 2 Korneal va kon'yuktival reflekslar umuman chaqirilmaydi.
- 3 Qorachiqslarning yorug'likka reaksiyasi butunlay so'nadi. Midriaz.
- 4 Yutish reflekslari va mimik reaksiyalar yo'qoladi.

# To'rtinchi darajali koma (terminal bosqich)

- To'la arefleksiya, muskullar atoniyasi, ikki tomonlama midriaz va gipotermiya.

- Yurak-qon tomir va nafas olish faoliyati to'la buzilganligi bois, ular sun'iy tarzda boshqariladi.

- Yurak-qon tomir va nafas olish faoliyati to'la buzilganligi bois, ular sun'iy tarzda boshqariladi.
- EEG – biofaollik yo'q.


# Glazgo shkalasi

Glazgo shkalasi bo'yicha to'plangan ballar	Hush buzilishi turlari
15 ball	Hushi buzilmagan
13 – 14 ball	Karaxtlik (somnolensiya)
9 – 12 ball	Sopor
4 – 8 ball	Koma
3 ball	Miya o'limi

# Ko'maning o'gir asoratlari

- **Dekortikatsion rigidlik  
(dekortikatsiya)**
- **Detseribratsion rigidlik  
(detseribratsiya)**
- **Apallik sindrom**
- **Surunkali vegetativ  
holat**

# E'tiboringiz uchun rahmat!





# Муаллиф ҳақида



*Zarifboy Ibodullayev* – tibbiyot fanlari doktori, professor. Toshkent tibbiyot akademiyasida ishlaydi. Olim 150 dan oshiq ilmiy asarlar muallifi. Uning “Asab kasalliklari” va “Tibbiyot psixologiyasi” darsliklari “Yilning eng yaxshi darsligi” sovriniga sazovor boʻlgan. Uning yirik asarlari “Umumiy nevrologiya”, darsligi “Epilepsiya va epileptik sindromlar”, “Asab va ruhiyat” “Insult va Koma” nomli qoʻllanmalari chop qilingan.